

“HASHAROT” LMG ASOSIDA SHAKLLANGAN PAREMALARDA SINONIMIYA VA ANTONIMIYA HODISASI

Zaripova Nilufar Juma qizi

BuxDU magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7835096>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining namunalari, xususan, paremalarning “Hasharot” lug'aviy manoviy guruhi asosida shakllangan turida o'zaro ma'nodoshlik hamda zid ma'nolilik hodisalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar. Maqol, parema, xalq og'zaki ijodi, leksik ma'no, “Hasharot” lug'aviy ma'noviy guruhi, sinonimiya, antonimiya.

Bir umumiy ma'no ifodalovchi so'z yoki qo'shimchalarga sinonimlar deyiladi. O'zaro sinonimik munosabatda bo'lgan so'z va qo'shimchalarga sinonimlar deyiladi. O'zaro sinonimik munosabatda bo'lgan so'z va qo'shimchalar sinonimlar uyasi yoki sinonimlar qatori deyiladi.

Bundan tashqari, sinonimlarda gradatsiya (darajalanish) holati ham kuzatiladi. Ya'ni ular salbiy, ijobiy va neytral yoki dominant bo'yoqdorligiga ko'ra tasniflanadi. Masalan, yuz, chehra, oraz, bet, turq, bashara degan sinonimlari qatoridan yuz so'zi dominant so'z hisoblanadi, turq, bashara kabi so'zlar salbiy bo'yoqqa ega hisoblanadi. Oraz, chehra so'zlari esa ijobiy sayqalga xizmat qiladi.

Quyida maqollar sinonimiyasini ko'rib chiqsak.

1. Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi.
2. Olmaning tagiga olma tushadi.

Bu ikki maqollarda aynan bir xil ma'noni ilg'ash mumkin, ya'ni bir xil toifa odamlar to'g'risida yoki bir odat boshqa avlod vakiliga o'tishi to'g'risida so'z yuritilyapti. Ammo shu o'rinda e'tibor berish kerak bo'lgan jihat-bu o'zaro ma'nodosh maqollar salbiy bo'yoqdorlikni namoyish qilmoqda.

Sinonimiya masalasi tilshunoslarning doimiy diqqatini tortib kelgan. So'z leksik-semantik strukturasi uning kontekstdagi leksik qurshoviga, shuningdek, ma'no qirralari faollashuvi darajasiga bog'liqligi nutqda doimiy va zaruriy bo'lishini, so'z leksik ma'nolarida paradigmatic munosabat semantik nuqtayi nazardan tekshirilganda, so'zlarning ma'no jihatdan bir xilligi – sinonimiyada o'z aksini topishini tadqiq etish masalalari jahon va rus tilshunosligi, turkiyshunoslik va o'zbek tilshunosligida keng o'rganilgan.

Shuningdek, “Hasharot” lug'aviy ma'noviy guruhi asosida shakllangan o'zbek xalq paremalarida ma'nodoshlikning quyidagi turlari aniqlandi:

1. “Hasharot” LMG asosida shakllangan o'zbek xalq paremalaridagi o'zaro sinonimiya:

Chivin birlashsa, filni holdan to'ydirar.

Mazkur maqol o'z navbatida, quyida keltirilgan “Hasharot” LMG asosida shakllangan boshqa bir maqol o'zaro ma'nodoshlikni aks ettiradi. Xususan:

Chumoli biriksa, sherni yiqitar.

Yuqorida keltirilgan har ikkala parema ham “Hasharot” lug'aviy ma'noviy guruhi asosida shakllangan bo'lib, dastlabki maqolda “chivin” leksemasi asos bo'lgan bo'lsa, ikkinchisi “chumoli” leksemasi orqali vujudga kelgan. Shu bilan qatorda, birlik, hamjihatlik semalarini ifodalab kelishi bilan o'zaro ma'nodosh paremalar ham sanaladi.

2. “Hasharot” LMG asosida shakllangan o‘zbek xalq paremlar tarkibidagi qismlar orasidagi sinonimiya:

Qovunning sarasini it yer,

Olmaning sarasini qurt.

Ushbu paremada tarkibidagi qismlar o‘zaro ma’nodoshlikni hosil qilgan. Birinchi qismdagi Qovunning sarasini it yer birligi Olmaning sarasini qurt birligi bilan mazmun jihatdan ma’nodoshdir. Shuningdek, quyidagi misolda ham shu holat takrorlanadi:

Yog‘ochning yumshog‘ini qurt yer,

Odamning yumshog‘ini it.

Bunda ham Yog‘ochning yumshog‘ini qurt yer qismi Odamning yumshog‘ini it qismidagi semalar bilan o‘zaro sinonim sanaladi.

Leksik antonimlarning qaysi turkum so‘zlari orasida oz-ko‘p bo‘lishi aniqlangan. Frazeologik antonimlardagi holat leksik antonimlardagidan farq qiladi. Leksik antonimlarning ko‘pi belgi ma’nosini anglatuvchi so‘zlar, asosan, sifatlardir. Frazeologik antonimlarda esa harakat holat ma’nosini anglatuvchi iboralar ko‘p. Bular frazeologik antonimlarning uchdan ikkisini tashkil qiladi. Qolgan frazeologik antonimlar belgi ma’nosini anglatuvchi iboralar bo‘lib, sifat turkumiga to‘g‘ri keladi. Ko‘rinadiki, turkum nuqtai nazaridan leksik antonimlar bilan frazeologik antonimlar teskari proportsional holatdadir.

Leksik antonimiyaning miqyosi aniqlanmagan. Faktik materiallarning ko‘rsatishicha, qariyb yuzta iboradan ikkitasi o‘zaro antonimlik munosabati hosil etib turadi., demak, antonimiya barcha frazeologik birliklarning taxminan ikki foiziga xos hodisa.

Shuningdek “Hasharot” LMG asosida shakllangan o‘zbek xalq paremlarida ham antonimiya, ya’ni zid ma’nolilik kuzatiladi. Jumladan, mazkur paremlarning tarkibida o‘zaro zidlanadigan, qarama-qarshi qo‘yilayotgan leksemalar mavjud. Masalan:

Sog‘ kishi kuyani ham ko‘radi,

Ko‘r kishi tuyani ham ko‘rmaydi.

Mazkur maqolda o‘zaro qarama-qarshilikni hosil qilgan ikkita birlik mavjud. Sog‘ kishi – ko‘r kishi birligi ushbu paremada antonimlikni hosil qilgan. Shuningdek, shartli tarzda kuya hamda tuya leksemalar o‘zaro zidlikka misol bo‘la oladi.

Qoraqurt ham bolasini oppog‘im der.

Kirpi bolasini yumshog‘im der.

Bu o‘rinda ham parema tarkibida ikkita zidlangan birlikni kuzatishimiz mumkin. Qoraqurt – oppog‘im so‘zlari kontekstual antonim bo‘lib, rang-tus jihatdan qarama-qarshi turadi. Kirpi – yumshog‘im leksemalarida shartli zidlanish mavjud bo‘lib, kirpi, ya’ni tipratikanning biologik xususiyati hamda yumshoqlik belgilari tamoman bir-biriga ziddir.

Ari zahrin chekmagan, bol qadrini bilmas.

Ushbu paremada zahar – bol so‘zlari o‘zaro zidlikka misol bo‘la oladi.

Dushmaning kuya bo‘lsa ham, tuya bil.

Garchi alohida leksema shaklida kuya hamda tuya so‘zlari antonim sanalmasa-da, mazkur paremada shartlik qarama-qarshilikni hosil qilgan. Bunda kuya – kichiklik, tuya esa kattalik semalarida o‘zaro zidlanadi.

Dard filni pashshadek qilur.

Mazkur paremada ham yuqoridagi singari fil – pashsha so‘zlari katta va kichiklik semalari asosida antonimlik namunasi sanaladi.

Yo poshsho buzar,

Yo –pashsha.

Bu o'rinda ham o'zaro antonimlik poshsho – kattalik; pashsha – kichiklik ma'nolari asosida vujudga kelgan.

Shuningdek, quyidagi paremada ham kattalik va kichiklik semalari o'zaro antonimlikka misol bo'lgan:

Burganing ko'ziga igna xari bo'lib, chumoli fil bo'lib ko'rinar.

Bunda igna – xari; chumoli – fil leksemalari shartli tarzda kontekstual zidlikni hosil qilgan.

References:

1. Bozorov Z.A International scientific and practical conference "Modern psychology and pedagogy: problems and solutions" "Imperial College London" 2021-2022. 165-169 б.
2. Bozorov Z.A. Essence, structure and functions of civil culture. International engineering journal for research & development. Published in Volume 6 Special Issue , January 2021 of IEJRD E-ISSN: 2349-0721 , Peer Reviewed & Referred Journal.
3. Bozorov Z.A. The role of motivation, needs and interests in the formation of civil culture of future medical workers. ACADEMICIA an international multidisciplinary research journal. ISSN: 2249-7137. Vol. 11, Issue 3, March 2021. Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492 DOI: 10.5958/2249-7137.2021.00835.1
4. Bozorov Z.A. The system of formation of civic culture among students in higher educational institutions. ISJ Theoretical & Applie Science, 01 (81), 455-458. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-01-81-81> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS> Scopus ASCC: 3304. (2020).
5. Bozorov Zayniddin & Samandarova Gulnoz. (2020). Ideological movement of legends and traditions in the novel "Shaytanat" by Tohir Malik. Theoretical & Applied Science. 84. 1014-1016. 10.15863/TAS.2020.04.84.187.
6. Bozorova G. Concerning some pleonastic and tautological constructions //Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
7. Bozorova G. Tautology and pleonasm: synchronic and diachronic views //Конференции. – 2021.
8. Bozorova G. Z. Ortiqchalik tamoyilining jahon tilshunosligida organilishi // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 9. – С. 945-951.
9. Bozorova Gulmira Zayniddinovna. Distinctive features of pleonasms in political speech // International scientific-online conference: Intellectual education technological solutions and innovative digital tools. Vol. 2 No. 14 (2023): - P. 168-174.
10. Kadyrovna A. M., Zayniddinovna B. G. Description of Events Which is Near to Pleonasm //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2022. – Т. 5. – С. 281-285.
11. Samandarova G.Y. Socially conditioned meanings of paremas formed on the basis of the lexical spiritual group "insects". Gospodarka i innowacje. Volume: 22 | 2022. –P. 443-446.
12. Samandarova, G. Y. (2021). Fundamentals of folk proverbs formed on the basis of the lexical-spiritual group of insects. Current research journal of philological sciences, 2(05), 39–42. <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-02-05-11>
13. Абдурахмонов Х. Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар. – Т.: Фан, 1977.
14. Бозорова Г. З. Идеиная направленность сказаний и преданий романа

"Шайтанат" Тахира Малика //Молодой ученый. – 2014. – №. 9. – С. 532-534.

15. Бозорова Г. Илмий нутқда учрайдиган айрим плеонастик бирликлар таҳлили //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 327-331.

16. Бозорова Г.З. ОАВда учрайдиган плеонастик бирликларнинг лингвопрагматик хусусиятлари // Interpretation and researches. 2023. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/oavda-uchraydigan-pleonastik-birliklarning-lingvopragmatik-hususiyatlari> (дата обращения: 10.04.2023).

17. Жўраева Б. Мақолнинг ёндош ҳодисаларга муносабати ва маъновий хусусиятлари. – Т.: Фан, 2007. –66 б.

18. Камол Ф. Қўшма гапларга доир масалалар.- Т.:1955.

19. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи.- Т.: Ўзбекистон, 2002.-Б.207.

20. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш.,Искандарова Ш.,Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Т.: Янги аср авлоди, 2001, -164 б.

21. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. 1-жилд. А-Р. – Москва: Рус тили, 1981. – 631 бет.

22. Ўзбек халқ мақоллари. 1-жилд. А-О. – Т.: Фан, 1987. – 368 бет.

23. Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани (Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати). – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 212